

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, B.Q.Qurbonova	
Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmini rivojlantirish.....	7
I.Tuychiyeva, Z.Axunova	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	10
D.R.Yuldasheva	
Bo'lajak vokal o'qituvchilari kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan omillar.....	14
A.R.Saydullayeva, B.Mahmudova	
Yuqori sinf o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda gender yondashuvning ahamiyati	20
I.I.Soliyev	
Oliy ta'lim muassasalari boshqaruvida institutsional mustaqillikni shakllantirish bosqichlari	26
Sh.D.Xonbabayev	
Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik asoslari	31
M.S.Xoshimov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....	36
L.Z.Xolmurodov	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning modulli texnologiyasi.....	41
A.Sh.Bazarbayeva	
Chet tillarini o'qitishda mashqlar tipologiyasi va tizimiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar.....	45
N.Sh.Abdiyeva	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi	54
F.A.Boltayeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kvest texnologiyasi orqali tadqiqiy bilish va reflektiv faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari.....	59
M.E.Maziyayeva	
Maktabgacha ta'limda neyropedagogika imkoniyatlaridan foydalanish	63
D.D.Boymirzayeva	
Oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy modellari	67
M.O.Ismailova	
Kitobxonlik madaniyati - inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur	71
G.O.Shaxbazova	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishning jismoniy-tarbiyaviy mazmuni	75
M.F.Bekchonova	
Fanlararo hamkorlikda biologiya yo'nalishi talabalarining biologik xavfsizlikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlantirishning nazariy jihatlarini	79
X.A.Ibragimov	
Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining samarali shakllari	83
A.T.Nazarov	
Sport turizmi tavsifi va undan bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanish	88
D.M.Xusanov	
O'quvchilarni harbiy ideal haqidagi bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruriyati.....	92
Y.Y.Turakulov	
Ta'limda raqamli texnologiyalarning pedagogik faoliyatga ta'siri.....	96
Sh.G'.Xasanov	
Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning nazariy jihatlarini.....	102



UO'K: 316.346.2

YUQORI SINIF O'QUVCHILARINI IJTIMOY HAYOTGA TAYYORLASHDA GENDER YONDASHUVNING AHAMIYATI**ЗНАЧЕНИЕ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА В ПОДГОТОВКЕ ШКОЛЬНИКОВ К СОЦИАЛЬНОЙ ЖИЗНИ****IMPORTANCE OF GENDER APPROACH IN PREPARING HIGH SCHOOL STUDENTS FOR SOCIAL LIFE****Saydullayeva Aziza Rahimovna** 

Farg'ona davlat universiteti pedagogika tayanch doktoranti

Mahmudova Baxtilaxon

Farg'ona davlat universiteti pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'quvchi yoshlarga gender va gender tengligi tushunchalari va uni mohiyatini anglatishning ahamiyati. Shuningdek yoshlarni sotsial hayotga tayyorlashda gender yondashuvining muhim jihatlari bayon etilgan.

Аннотация

В данной статье рассматривается важность разъяснения юным читателям понятий гендера и гендерного равенства и его сути. Также описаны важные аспекты гендерного подхода в подготовке молодежи к общественной жизни.

Abstract

In this article, the importance of explaining the concepts of gender and gender equality and its essence to young readers. Important aspects of the gender approach in preparing young people for social life are also described.

Kalit so'zlar: Gender tenglik, BMT, uzluksiz ta'lim, jamiyat, barkamol shaxs, huquq.**Ключевые слова:** Гендерное равенство, ООН, непрерывное образование, общество, целостная личность, закон.**Key words:** Gender equality, UN, continuous education, society, complete person, law.**KIRISH**

Ijtimoiy hayotga moslashuvchan, jamiyat va davlat rivojlanishi uchun ulkan hissa qo'sha oladigan barkamol shaxsni tarbiyalash bugungi kunda davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan desak yanglishmaymiz. Hozirgi jamiyatda o'sib borayotgan shaxs jamiyatda o'z o'zni va rolini bilishi lozim. Bu tushunchalar to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni yosh avlod uzluksiz ta'lim tizimini olish jarayonida o'zlashtirib boradi. Bugungi kunda ta'lim sifatini ko'rsatkichi sifatida ta'limda gender yondashuvi elementlarini joriy etish tobora ommaviylashmoqda. Ta'limda gender tengligi ijtimoiylashuv jarayonini ta'minlash hamda me'yor va tushunchalarni yetkazishda, shu jumladan gender tengligi to'g'risidagi sifatli bilim olishdan teng foydalanishni anglatadi.

Gender strategiyasi doirasida gender tenglik tushunchasi jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, madaniyat, ta'lim, ilm-fan, sport munosabatlarida xotin-qizlar va erkaklarning huquq hamda imkoniyatlarining tengligini anglatadi

Gender (inglizcha «gender», lotincha «genus» so'zlaridan - «zot») – insonning jamiyatda o'zini tutishini va bunday tutish qanday qabul qilinishini belgilaydigan ijtimoiy jinsdir. Gender tengligi – ayollar va erkaklar, qizlar va o'g'il bolalar uchun teng huquq, mas'uliyat, imkoniyat, qadriyat va natijalardir. Gender tengligi faqat ayollarga taalluqli masala bo'lmasdan erkaklarning huquq va majburiyatlarini ham anglatadi. Chunki jamiyat har ikki jinsdan gender normalari va standartlariga muvofiq harakat qilishni talab qiladi. Tenglik ayollar va erkaklar bir xil bo'lib qolishini bildirmaydi, lekin ularning huquqlari, mas'uliyati va tengligi o'zlari qiz yoki o'g'il bola bo'lib tug'ilganlariga

bog'liqdir. Gender tengligi ayollarning ham, erkaklarning ham manfaatlari, ehtiyojlari va ustuvorliklari hisobga olinganligini ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

X.M.Tojiboyevaning ta'kidlashicha, mustaqil fikrlovchi shaxsni rivojlantirish uchun jinsga ko'ra farqlarni hisobga olgan holda hamda umumiy xarakterdagi o'quv materiallarini taqdim qilishdan iborat. O'quvchilarda gender madaniyatini shakllantirishda ta'lim katta ahamiyatga ega ekanligini kuzatishlarimiz yaqqol ko'rsatdi. Ta'lim o'g'il va qiz bolalarning o'ziga xos tarzda ijtimoiylashuvini ta'minlashda harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. O'quvchilarda gender madaniyatni shakllantirish jarayoni o'zida umuminsoniy, madaniy qadriyatlar, tafakkurning nostandart stereotiplari, borliqni tahliliy idrok etish imkoniyatlarini mujassamlashtirishi kerak. Buning uchun ta'lim mazmunida milliy madaniyatga xos qadriyatlar hamda universal madaniy qadriyatlarni uyg'unlashtirish talab etiladi. Ayollar va erkaklarning teng huquqligi inson huquqlarining eng asosiylaridan biri hisoblanib, ijtimoiy adolatni ta'minlashning shartidir. Ayni vaqtda bu tenglik, rivojlanish va tinchlikka erishishning zarur va asosiy sharti ham hisoblanadi. Ayollar va erkaklarning teng huquqlilik asosida sheriklik munosabatlarini o'rnatish inson manfaatlariga yo'naltirilgan barqaror rivojlanishning hal qiluvchi omillaridan biri hamdir. Bevosita shuning uchun BMT Ming yillik rivojlanish maqsadlarining 3-maqsadi erkaklar va ayollar tengligini rag'batlantirish hamda ayollar huquqlari va imkoniyatlarini kengaytirishni ko'zda tutadi. Afsuski, insoniyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida turmushning barcha sohalarida ayollar va erkaklar tengligi to'la ta'minlangan birorta mamlakat yo'q. Ammo tengsizlik, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar va eng kambag'al oilalarda ko'proq uchraydi hamda bu birgina odamlarning o'zlari uchun emas, balki umuman jamiyat uchun ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ayollar va erkaklar o'rtasidagi tengsizlik ta'lim, ish vaqti, ish xaqi, umr ko'rish davomiyligi, hokimiyatda va boshqaruvda ishtirok etish kabi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Masalan:

– ayollar jahon aholisining 50 % dan ko'prog'ini tashkil etadi, lekin ular jahon mulkining 1,0 % ga egalik qiladi;

– ayollar jahonda bajariladigan ishlarning uchdan ikki qismini qiladilar, ammo jahonda olinadigan foydaning o'ndan bir ulushiga egalilar;

– savodsiz va ishsizlarning ko'pchiligi – 60% dan ko'prog'i xotin-qizlardir;

– jahondagi barcha parlamentlar a'zolarining faqat 20% ayollardir;

– xotin-qizlar mehnatga haq to'lash darajasi past bo'lgan sog'liqni saqlash va ta'lim sohasida ish bilan bandlarning ko'pchiligini tashkil etadilar, erkaklar esa ish haqi yuqori bo'lgan iqtisodiyotning transport, aloqa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tarmoqlarida aksariyat ko'pchilikdirlar.

– XXI asrda Gender tenglik va Yoshlar masalalari sohasida hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha 28-noyabr 2019-yil o'tkazilgan xalqaro forumda BMTning O'zbekistondagi doimiy vakili Helena Freyzerning kirish so'zida quyidagilarni takidlagan: O'zbekiston barqaror rivojlanish maqsadlari yo'lida gender tenglik masalalari bo'yicha quyidagilarni o'z zimmasiga oldi:

– Hamma jabhada ayollar va qizlarga nisbatan kamsitilishning barcha turlarini tugatish;

– Davlat va xususiy sektorda ayollar va qizlarga nisbatan zo'ravonlikning barcha turlarini yo'q qilish;

– Jamiyat hayotida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini va barcha darajada yetakchilik uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash;

– Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tengligi tamoyillarini to'liq aks ettirish.

– Bir yil oldin biz ushbu rejalarni amalga oshirishda muhim yutuqlarga guvoh bo'ldik.

Gender tengligi va ayollarga nisbatan zo'ravonlikni oldini olish to'g'risida ikkita qonun qabul qilindi hamda ayollarni rahbarlik roliga va tadbirkorlikka jalb qilishga, ta'lim imkoniyatlarini kengaytirishga va oiladagi zo'ravonlikdan jabrlangan ayollarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bir qator tadbirlar amalga oshirildi.

O'zining milliy barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida hukumat yoshlar uchun aniq rejalarni qabul qildi, shu jumladan:

– 2030-yilga kelib ish bilan ta'minlanmagan yoki o'qimaydigan yoshlar sonini kamaytirish;

– 2030-yilgacha yoshlarni to'liq va samarali ish bilan ta'minlash;

– Yoshlarning texnik va kasbiy mahoratga hamda ish bilan bandligiga erishish, munosib ish joylariga kirish va tadbirkorlikni boshlash imkoniyatlarini oshirish.

– Shuningdek, biz yana bir bor hukumatning Beshta tashabbus dasturi doirasida yoshlar uchun qabul qilgan aniq rejaları va amalga oshirayotgan harakatlarini koʻrdik. Oʻzbekiston BMTning Global Yoshlar 2030 dasturini amalga oshiruvchi mamlakat boʻlishda tashabbus koʻrsatadi.

Oʻzbekiston Respublikasida gender yondashuv asosida uzluksiz taʼlim muassasalarida oʻqitish sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirish, kasbiy taʼlimda gender masalalari kabi yoʻnalishlarda tadqiqotlar (O.Musurmonova, N.Egamberdieva, R.Samarov, U.Temirova va boshqalar) amalga oshirilgan. Mazkur tadqiqotlarda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini oshirish masalalari gender yondashuv orqali tahlil etilgan, pedagogik taʼlimda gender yondashuv masalalari oʻrganilgan.

Komil farzand tarbiyasi, har jihatdan sogʻlomligi, Vataniga boʻlgan muhabbati kabi masalalar koʻtarilganda, mutafakkir Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir, – degan maʼnoli fikrlari naqadar haqiqat ekanligini anglaymiz. Tarbiyaning oʻchogi boʻlgan oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlarning rivojini taʼminlovchi, maʼnan va jismonan barkamol avlodni dunyoga keltirib, tarbiyalab, vatanparvar yurt himoyachilarini voyaga yetkazuvchi muqaddas makon sanaladi. Inson ilk tarbiyani oiladan, onaning suti va oʻziga xos allasidan oladi. Uning taʼsiri odam tabiatiga, qalbiga mustahkam joylashadi. Farzandning komilligi, ruhiyati, mehribonligi, odobi har bir oilada belgilangan ichki, oʻziga xos qonun-qoidalari asosida shakllanib boradi. Xalqimizda bir maqol bejjiz shakllanmagan “Qush uyasida koʻrganini qiladi”. Shu sababdan ham oilada inson qanday tarbiyalansa shuni jamiyatda namoyon qiladi deya olamiz.

Shuningdek, Abdulla Avloniyning fikricha, odam yomon xulq bilan tugʻilmaydi. Muayyan sharoitdagi tarbiya natijasida ularda salbiy illatlar paydo boʻladi va rivojlanib boradi. Insondagi qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan amalga oshadi. Shu bois, Sharq maʼrifatchiligi bola tarbiyasiga hamisha katta eʼtibor bilan qaragan va bu davrni uch guruhga boladilar:

Birinchisi hanuz oq bilan qorani tanimaydigan bola. Uning tabiati hali yomonlik gubori bilan qoplanmagan, yuragi esa botil ishlar bilan qoralanmagan boʻladi. Bunday bolaga nasihat tez taʼsir qiladi va uni toʻgʻri yoʻlga osonlik bilan solish mumkin.

Ikkinchisi oq bilan qorani ajratadigan bola. Ulardan baʼzilari oʻz nafsining gʻalabasi bilan yaxshilik tomon egilolmay qolgan boʻladi. U qilayotgan ishining yomonligini biladi. Nuqsonlarini esa eʼtirof etadi. Bunday odamni birinchisiga nisbatan qiyinroq, ammo doimiy tarbiya, nasihat va tanbehlar bilan yomonlikdan qaytarish mumkin.

Uchinchisi oilada botil xayol va fosid fikrlar bilan oʻsib, ulgʻaygan kishi. U umr boʻyi nohaq ishlarni haq deb bilib kelgan va shunga astoydil eʼtiqod qoʻygan boʻladi. Yomonlik qilsa ham uni oʻzicha yaxshilik deb oʻylaydi. Uning tarbiyasiga kirishish igna bilan quduq qazish yoki hali qizib choqqa aylanmagan temirni bolgʻalash bilan barobar. Mutafakkirlar yaxshi yoki yomon xulqli boʻlishni oilaga bogʻlaydilar. Ularning aytishicha, yomon xulqli ayoldan tugʻilgan va razil ota qoʻlida tarbiyalangan farzandan yaxshilik kutish qiyin. Chiroyli xulq oftobga oʻxshaydi. Oftob muzni eritgani kabi chiroyli xulq ham barcha yomonliklarni eritib yuboradi. Muhammad ibn Muhammad al-Jomiyning fikricha, bola yetti yoshga yetgach, uni ilm olishga va johillik botqogidan qutqarishga orgatiladi, agar unga ilm berishning iloji bolmasa, biror yaxshi hunarga oʻrgatiladi.

Abdurauf Fitrat fikricha, avlodni tarbiyalash insoniyatning xizmatidir. “Qachonki biz yaxshi axloq egasi boʻlgan farzandlarni tarbiyalasak, shundagina boʻynimizdagi bu xizmat majburiyati soqit boladi. Kimki, badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan boʻladi. Jamiyat ularning farzandlaridan bezor boladi. Xush va yaxshi axloqqa ega bolgan farzand, xushaxloq iymon sohibi boʻlgan ota-onalardan boʻladi, agarda ota-ona axloqsiz boʻlsalar, ularning tarbiyalari soyasida oʻsgan farzand ham badaxloq boʻladi, deya bola tarbiyasida ota-onalarning namuna bolishi haqida qimmatli fikrni ilgari surgan.

Shu oʻrinda aytish mumkinki, har bir insonning baxt-saodati, uning kelajak hayoti butun insoniyatning taqdiri bilan uzviy bogʻliqdir. Hozirgi tarixiy jarayonlarning rivojlanishi, bir tomondan, har xil davlatlar oʻrtasidagi ziddiyatlarning saqlanib qolishi bilan, ikkinchi tomondan, jahon hamjamiyati davlatlarining oʻzaro bogʻliqligi tobora kuchayib borishi, turli xalqlarning ijtimoiy hayoti va turmush tarzining baynalmilal tus olib borishi bilan tasniflanadi. Ayni vaqtda barcha xalqlar uchun munosib chinakam insoniy turmushning moddiy va maʼnaviy shart-sharoitlarini yaratish, sayyoramizdagi hayotni taʼminlash, uning boyliklariga, avvalo, eng katta boylik insonning oziga, uning imkoniyatlariga avaylab munosabatda boʻlish - bugungi kunning dolzab muammolariga aylanib bormoqda. Endilikda inson, uning hayoti, ozodligi, shaʼni, qadr-qimmatini va boshqa ajralmas

PEDAGOGIKA

huquq hamda erkinliklari muqaddas sanalib, ular davlat tomonidan kafolatlanadi. Bu boradagi eng muhim masalalardan biri bu millatlararo munosabatlar sanalib, mazkur masala har bir davlat milliy havfsizligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Dunyo ijtimoiy-siyosiy rivojlanish jarayonida ayol bilan erkak teng huquqli ekanligi, ular mehnat turini tanlashda, fikrlash va oila qurishda erkindirlar, degan qarashlar shakllangan. Ushbu qarashlar mohiyatida ayolni ijtimoiy hayotning subyektiga aylantirishdek ezgu niyat yotadi. Ayollar uchun erkaklar bilan teng huquqlilikni ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotda ularning imkoniyatlarini kengaytirish, ta'lim olish uchun teng imkoniyatlarni yaratish borasida dunyo hamjamiyatida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekistonda shaxsning jamiyatdagi faolligini oshirish huquqiy jihatdan kafolatlangan. Ta'lim jarayonida genderli yondashuvga amal qilishining afzalligi shundaki, ta'lim jarayonida o'gil va qiz bolalar manfaatlarini hamda intellektual imkoniyatlarini hisobga olishga ko'maklashadi. Ta'lim jarayonida amalga oshiriladigan pedagogik ta'sirlar o'gil va qiz bolalarning xatti-harakatlari, dunyoqarashlarida ijobiy o'ziga xoslik paydo bo'lishiga yordam beradi. Ta'lim jarayonida gender xoslikni ta'minlamasdan turib, intellektual-ma'naviy jihatdan rivojlangan shaxsni shakllantirib bo'lmaydi. Bunday ta'lim tizimi o'gil va qiz bolalarning manfaatlarini ustuvorligi asosida tashkil etilishi kerak. Gender ta'limni tashkil etish zarurligini hisobga olgan holda o'quv jarayonini isloh qilish o'gil va qiz bolalarning erkin, intellektual, ma'naviy rivojlanish imkoniyatlarini kengaytiradi. Genderli yondashuvning pedagogikada qo'llanilishi, birinchidan, ijtimoiy muhitda samarali faoliyat ko'rsata oladigan, ikkinchidan, jamiyat talablariga mos keladigan ijodkor, tadbirkor, intellektual rivojlangan yosh avlodni kamol toptirishda asosiy o'rinni egallaydi.

NATIJALAR

Pedagogika fanida genderli yondashuv va farqlarni hisobga olish tamoyili ustuvor bo'lishi lozim. Bu ustuvorlikni ta'minlashning o'ziga xos jihatlari:

- O'quv materialini tanlashda o'gil va qiz bolalar orasidagi o'ziga xoslikni farqlash;
- O'gil va qiz bolalarning alohida o'ziga xos faoliyatini rivojlantirish;
- muayyan jinsga mos keladigan o'quv faoliyatini tashkil etish;
- har bir jinsning o'ziga xos faoliyat torini shakllantirishga xizmat qiladigan oquv materiallarini tanlash;

- ta'lim jarayonida, didaktik jihatdan shakllangan gender interpretatsiyalarini qo'llashga yonaltirilgan pedagogik faoliyatni shakllantirish.

Ta'lim jarayonida ogil va qiz bolalarga mehnat ta'limini berish va ularni kasbga yo'naltirishning barqaror pedagogik tizimini vujudga keltirishda o'quvchilarning gender jihatdan o'ziga xos bo'lgan shaxsiy sifatlarini qaror toptirish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ta'lim jarayonida quyidagilarga alohida e'tibor berish zarur:

- o'gil va qiz bolalar orasidagi farqlarni neytrallashtirish va interpretatsiyalashga qaratilgan o'quv harakatlarini tashkil etish;

- ularni gender o'xshashlikni namoyon qilish ruhida tarbiyalash;

- o'gil va qiz bolalarning shaxsiy qiziqishlariga muvofiq keladigan o'quv faoliyati turlarini tashkil etish;

- aniq o'quv vaziyatini hisobga olgan holda faoliyat ko'rsatishni ta'minlash.

O'gil va qiz bolalarning har biri qanday bo'lishi, qanday faoliyat turini egallashi ta'lim sifatiga bog'liq.

Ta'lim jarayonida gender ijtimoiylashtirishning muayyan asosi, mehnat taqsimoti va jamiyatda qabul qilingan madaniy me'yorlar, ijtimoiy faoliyat turlari, ularning ijtimoiy mavqei orqali ifodalanadi. Ta'lim tizimida qabul qilingan gender me'yorlar va mezonlar muayyan darajada o'quvchilarning biologik jinsiga qarab ularning ruhiy sifatleri, qobiliyatlari, faoliyat turlari, egallaydigan kasblarini belgilashga xizmat qiladi. Ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim beruvchilar, oila, maktab, atrof-muhitdagilar birgalikda tarbiyalanuvchilar ongiga gender me'yorlar, mezonlarni singdiradilar. Bu qarashlar o'quvchilarda haqiqiy ayol, haqiqiy erkak qanday bo'lishi to'g'risida dastlabki tasavvurlarning paydo bo'lishiga ulkan hissa qo'shadi. Keyinchalik ushbu gender me'yorlar va mezonlar ta'lim oluvchilarda shakllantiriladigan faoliyat turlari orqali mustahkamlanadi. O'quv jarayonida gender ijtimoiylashtirish bu o'quvchi tomonidan jamiyatda gender madaniy tizimining o'zlashtirilishi jarayonidir. Ta'lim jarayonida gender ijtimoiylashtirishning muhim belgilari sifatida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish, o'quv mehnatini to'g'ri taqsimlash, ularda gender xoslikka asoslangan shaxsiy sifatlarini qaror toptirishdan iborat.

MUHOKAMA

Bolaning gender ta'limi ishtirokchilarini muhimlik darajasiga qarab ajratamiz: 1. Oila. Bola o'z qarindoshlarini nusxa ko'chiradi, ayniqsa, hamma narsada o'z jinsining ota-onasiga o'xshashga harakat qiladi. Farovon va osoyishta oilada yashovchi bola jimgina jinlar o'rtasidagi munosabatlarni normal qabul qilishni o'rganadi, chunki ota-onasi unga yaxshi o'rnatilgan ko'rsatadi. O'g'il bola otaning erkakligiga, qiz onaning ayollikiga taqlid qiladi va ular buni hech qanday maxsus ko'rsatmasiz qilishadi. Bundan tashqari, kundalik hayotda ota-onalarini kuzatish orqali bolalar qarama-qarshi jinsdagi odamlar bilan qanday munosabatda bo'lishni o'rganadilar. 2. Pedagogik jamoa. Jinsiy tarbiya, birinchi navbatda, ota-onalarga, keyin esa bolalarga qaratilishi kerak. O'qituvchi bilim beradi, bolalarning gender munosabatlariga oid savollariga javob beradi. O'qituvchi aytgan hamma narsa haqiqat bo'lishi kerak. Gender yondashuvi madaniy va gigiyenik ko'nikmalarni tarbiyalashda namoyon bo'ladi. 3. Doktor. Jinsiy tarbiyada shifokorning ishtirokini aniqlashtirish kerak. Jinsning ruhiy gigiyenasi masalalari bilan tanish bo'lgan tibbiyot xodimlarining asosiy vazifasi - tarbiyachilarga maslahat berish: ota-onalar, o'qituvchilar, boshqa mutaxassislar va bolalar muassasalari va tashkilotlari xodimlarini jinsiy tarbiyaning tibbiy-gigiyena masalalari bo'yicha o'qitish. 4. Muhitni ta'siri. Bola o'z jinsiga qarab o'zini anglashga yordam beradi va atrofda unga ko'ra harakat qiladi. Atrof-muhit deganda: tengdoshlar, kattalar, tarbiyalanuvchi qo'shiqlarini tinglaydigan musiqachilar, filmlar va multfilmlarning ssenariy mualliflari, rassomlar, yozuvchilar va shoirlar, moda dizaynerlari va boshqalar tushuniladi. Biz anglamagan holatda o'g'il va qiz bolalarni tarbiyalashning stereotiplarini o'rnatib olamiz. Deyarli bolaga oilada gender ta'limi tug'ilishdan boshlab o'rnatiladi. Darhaqiqat, ota-onalar tug'ilmagan bolaning jinsini bilishlari bilanoq, ular o'g'il yoki qizning paydo bo'lishiga ham ruhiy, ham jismonan tayyorlana boshlaydilar. Rangi bo'yicha narsalarni, jinsi bo'yicha o'yinchoqlarni sotib olishadi. Ammo gender ta'limining stereotiplar bilan hech qanday aloqasi yo'q: o'g'il bolalar aravachasi qora, qizlar aravachasi esa pushti. Bola ma'lum biologik jins bilan tug'iladi va ijtimoiylashuv jarayonida, ya'ni boshqa odamlar bilan muloqot qilish jarayonida gender rolini oladi. Psixologlar isbotladilarki, 2 yoshga kelib, bola o'zining kimligini - qiz yoki o'g'il ekanligini tushuna boshlaydi. Gender ta'limining boshlanishi uchun eng qulay yosh davri hayotning to'rtinchi yilidir: 3-4 yoshda bolalar ongli ravishda jinlarni farqlaydilar va 4-5 yoshda jinsiy sotsializatsiya sodir bo'ladi; 6-7 yoshda soha haqida barqaror fikr, gender doimiyliги shakllanadi. Shunday qilib, 4 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalar qizlarning ayolga, o'g'il bolalar esa erkakka aylanishini, yuzaga keladigan vaziyatlardan yoki bolaning xohishlaridan qat'iy nazar, jins saqlanib qolishini allaqachon bilishadi (ya'ni, gender barqarorligi shakllanadi). Ko'pgina ota-onalar bolalarning gender rolini avtomatik ravishda nusxalashiga ishonishadi. Muammo shundaki, zamonaviy bolalar uchun ko'pincha o'zlarini tarbiyalash qiyin. Chunki, masalan, dadam kamdan-kam hollarda uyda bo'ladi va onam bir vaqtning o'zida ikkita jins vakilini ishlarini bajaradi degan qarashlar mavjud bo'ladi. Hozir ko'p bolalar o'z jinsini buzuvchi xulq-atvor bilan bog'lashadi: qizlar to'g'ridan-to'g'ri va qo'pol bo'lib qolishadi, o'g'il bolalar esa uyda ham, bog'da, poliklinika va hokazolarda ham ularni o'rab turgan ayollarning xatti-harakatini o'zlashtiradilar. O'g'il bolalar, o'zlarini himoya qilishga urinmaydilar, jismonan zaif, chidamsiz va hissiy jihatdan beqaror bo'lib rivojlanib borishadi. Taniqli Rossiyalik olim V.F. Bazarniy bu holatni quyidagicha izohlagan: «Qiz va o'g'il bolalar qiziqadigan narsalar bir-biridan farqli bo'ladi. Men ularga bir xil hikoyani o'qib beraman, lekin qizlar boshqa bir obrazlar, tasavvurlar, his-tuyg'ularidan ta'sirlanishsa, o'g'il bolalarda butunlay boshqacha bo'ladi. O'qituvchi ta'lim jarayonida o'quvchilarni birday qiziqitira olmaydi, shuning uchun majburlashiga va ularni chuqurroq jalb qilishga to'g'ri keladi. Nazoratda ushlab turish uchun itoatkorlik, intizom va ikki baho qo'yish bilan jazolashni boshqaruv vositasi qilib oladi. Afsuski, barcha maktablar mana shu tamoyilning ustiga quriladi. O'g'il bolalar qizlarga qaraganda ko'proq tajovuzkorlik namoyon bo'ladi va ularning faolligini ham rag'batlantiramiz. Biz qizlardan samimiylik, sezgirlik va hissiyotlarni kutamiz. Kattalar rahbarligida taqlid qilish orqali bola o'g'il yoki qiz bo'lishni o'rgana boshlaydi. O'g'il (yoki qiz) sifatida uning pozitsiyasi o'yinlar, qiziqishlar, orzularni tanlashda uning yo'nalishini belgilaydi. Bolani o'z jinsi qadriyatlariga yo'naltirish, birinchi navbatda, oilada sodir bo'ladi. Shunday qilib, o'g'il bolaga, hatto eng kichigiga ham odatda: "Yig'lama, sen qiz bola emassan. Yoki sen erkaksan". Qizlarga esa bunday ko'rsatma beriladi: "Urushma. Panjara va daraxtlarga chiqma. Sen qiz bolasan." Boshlang'ich maktabda barcha o'g'il bolalarni beparvo yozish va yomon qo'l yozuvi uchun tanbeh berishadi. Masalan, bolalar o'qishni boshlaganlarida, ular o'qish texnikasini tekshira boshlaydilar. Bir narsa aniqki, ayollar erkaklarga qaraganda deyarli 3 barobar ko'proq nutqqa ega bo'lishadi. Ayol kuniga 20 ming so'z talaffuz

PEDAGOGIKA

qiladi, erkak esa – 7 ming. Qizlar, o'g'il bolalardan farqli o'laroq, aniq, chunki ularning nozik motorli ko'nikmalari o'g'il bolalarga qaraganda yaxshiroq rivojlangan deyish mumkin. Bu shuni anglatadiki, bolani jinsiga mos ravishda tarbiyalash va tarbiyalash muammosi maktabgacha yoshdagi bolalar bilan pedagogik ishning dolzarb vazifasidir. Maktab davri - bu o'qituvchilar va ota-onalar bolaga jinsi bo'yicha unga berilgan noyob imkoniyatlarni kashf etishga yordam berishlari kerak bo'lgan davrdir. Bolalarning gender rivojlanishi bolada gender identifikatori o'z vaqtida shakllanishini va bunday nomuvofiqliklar bo'lmasligini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak. O'qituvchi an'anaviy ravishda ayol va erkak jinsiga xos bo'lgan xarakter xususiyatlarini nomlaydi, o'qituvchilar ularni tegishli ustunlarga joylashtiradilar. Xarakterli xususiyatlar: etakchilik fazilatlarini, tajovuzkorlik, shijoatilik, jasorat, samimiylik, hissiy sezgirlik, mehribonlik, kamtarlik, itoatkorlik, xushchaqchaqlik. Mavjud vaziyat qiz boladan nafaqat an'anaviy ayollik fazilatlarini (yumshoqlik, ayollik, o'zgalarga nisbatan g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish, balki qat'iyatlilik, tashabbuskorlik, o'z manfaatlarini himoya qilish va natijalarga erishish qobiliyatini) namoyon etishini talab qiladi. O'g'il bolalarda faqat erkaklik fazilatlarini tarbiyalash mumkin emas, chunki ulardan bag'rikenglik, sezgirlik, yordam berish qobiliyatini talab qiladi. O'g'il bolalar va qizlarning gender identifikatorini shakllantirish faqat o'g'il bolalar va qizlar muloqot qilish, birgalikda ishlash imkoniyatiga ega bo'lgan muhitdagina mumkin, lekin shu bilan birga ular o'zlarining jinsiga xos bo'lgan individual xususiyatlarini ham ko'rsatishlari mumkin. Shu sababli, gender o'ziga xosligini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri o'g'il va qizlarni o'rab turgan ko'p funktsiyali subyektni rivojlantiruvchi muhitni yaratishdir. Obyekt-fazoviy muhit tarbiyalanuvchilarning turli xil faoliyat turlarini (jismoniy, o'yinli, aqliy) ta'minlabgina qolmay, balki gender xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning mustaqil faoliyatining asosini tashkil qiladi. O'qituvchilar har doim ham o'g'il bolalarning ehtiyojini to'g'ri tushunmaydilar va ularni to'satdan to'xtatadilar, bolalarni ular boshdan kechiradigan quvonchdan mahrum qiladilar, shuning uchun ko'proq o'g'il bolalar bo'lgan guruhda, mos keladi. O'g'il bolalar va qizlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar muhim ahamiyatga ega. O'g'il bolalar o'rtasidagi munosabatlar, qoida tariqasida, tashkilotchilik qobiliyatini tan olish, ijobiy natijaga erishish asosida quriladi. O'g'il bolalar ofaoliyatida, guruhda faollik ayniqsa xarakterlidir. Qizlarning faoliyati kichikroq guruhlarda tashkillanadi. 1. O'g'il bolalar va qizlar o'zlarini boshqacha tutishadi.

XULOSA

O'g'il bolalarning munosabatlarida qizlarga nisbatan, ko'pincha ziddiyat yuzaga kelganda, o'qituvchilar ko'pincha qizlar tarafini olishadi. Bu ularning xatti-harakatlarining o'ziga xos xususiyatlarini bilmaslik bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytilsa yoshlarni har tomonlama barkamol shaxs bo'lib yetishishida ular sotsial muhitda o'z huquq va majburiyatlarini to'laqonli bilishlari va bajarishlari uchun ularga maktab ta'lim davridan boshlab barcha yetarlicha bilim berib borilsa va ularni o'zlashtirishi nazoratga olinsa barcha yosh avlod o'z huquq va majburiyatlarini to'liq anglab oladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbekiston Respublikasi ta'lim to'g'risida"gi qonun. -Toshkent: O'zbekiston, 23-sentabr, 2020-yil
2. Vazirlar Mahkamasining "Umumta'lim maktablarida "Ta'lim" fanini bosqichma-bosqich joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 422-son qarori // Narodnoe slovo. - Toshkent, 2020 yil 7 iyul.
3. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotga kirish. –T. "O'zbekiston", 2007
4. Narbayerova T.K. Mamlakatimizda ta'lim va tarbiyani rivojlantirishda xotin-qizlarning o'rni. // Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universitetining axborotnomasi. –Nukus, 2018. №4. 37-39 b.
5. Raximovna, S.A. (2022). Development of Gender Culture. Academic Journal of Digital Economics and Stability, 16, 88-92.
6. Сайдуллаева, А.Р. (2022). НАЗНАЧЕНИЕ ГЕНДЕРНОГО ПОДХОДА В РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНОЙ-АКТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ. INNOVATION IN THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2(18), 705-711.
7. AR Sadullayeva - BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ..., 2023 - sciencebox.uz Journal of Advanced Research and Stability Page 1 Journal of Advanced Research and Stability Volume: 03 Issue: 03 | Mar - 2023 ISSN: 2181-2608 www.sciencebox.uz